

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA QO'L MEHNATI
ORQALI AQLIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI
CONTENT OF MENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN
THROUGH HAND WORK
СОДЕРЖАНИЕ ПСИХИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА РУЧНОЙ РАБОТОЙ**

Хасанова Gulnoza Ilxom qizi

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Soatmurodova Yulduz Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'l mexnati orqali aqliy tarbiya berishning mazmuni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: qo'l mehnati, jismonan sog'lom,baquvvat bo'lishi, yasash usullari, mehnat ko'nikmalari, ijodiy munosabat.

Аннотация: В статье рассматривается содержание обучения детей дошкольного возраста ручному труду.

Ключевые слова: ручной труд, физическая подготовленность, энергия, мастерство, трудовые навыки, творческий настрой.

Annotation: This article discusses the content of manual labor education for preschool children.

Keywords: manual labor, physical fitness, energy, craftsmanship, work skills, creative attitude.

Bolalarda mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash mahorat paydo qilishda ular bilan o'tkaziladigan qo'l mehnati mashg'ulotlarining mohiyati juda kattadir. Bu mashg'ulotla maktabgacha ta'lim bolalarda mehnatga ijodiy munosabatni paydo qilishga ko'mak beradi. Oqilona yo'naltirilib va boshqarilib turilgan bunday mashg'ulotlar bolalarda odatda qiziqish uyg'otadi. Bolalarda o'z qo'llarini his qilish tuyg'usini uyg'otib, qo'l harakatlarining ajoyib imkoniyatlarini ochib berish bu qo'llardan mohirona foydalanishga o'rgatish ularda kelajakda qimmatbaho qurol bilan ta'minlash demakdir.

Bolalar maktabgacha ta'limdagi mehnat faoliyat turlari har xil. Ular orasida bolalar uchun eng qiziqarlisi va bolaning har taraflama aqliy sifatllarini shakllantirishda katta yordam beradigan turi-bu qo'l mehnatidir.

Qo'l mehnati pedagogik adabiyotlarda bolalarni kelajakda ular tanlaydigan va shug'ullanadigan mehnat faoliyatiga tayyorlovchi muhim psixologik vosita sifatida talqin etiladi

Qo'l mehnati maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida muhim o'rin egallaydi. Aynan shu yoshda bolalarning jismonan sog'lom,baquvvat bo'lishiga asos solinadi,bolalarning aqliy sifatllari shakllanadi. Ana shu davrda tarbiyaning ta'sirchan va maqsadli bo'lishida qo'l mehnati katta yordam beradi.

Tasviriy faoliyatning qo'l mehnati deb ataladigan ulkan pedagogic imkoniyatlar mujassamlashtirilgan.

Qo'l mehnati mashg'ulotlari asosan o'rta va katta guruhlarda o'tkaziladi. Ayni shu yoshda bolalarning o'zlari ham qo'l mehnatiga ishtiyoq bilan kirishadilar. Qo'l mehnati bolalarda ijodkorlik imkoniyatllarini ochib beradi.

Qo'l mehnati deganda biz asosan turli material ,qog'oz , karton,yog'och tabiiy materiallar somon daraxt po'stlog'i shaftoli donagi,makkajo'xori so'tasi shuningdek tashlandiq ashyolar qiyqimlar,matolar,g'altak qutichalar,plastmassa idishlardan bolalarning o'yinchoqlari, turli hayvonlar yasashni tushunamiz.

Qo'l mehnati bolalarning qurish yasash qobiliyatini ijodkorligini topqirligini rivojlantiradi. Ishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, kirishuvchanlikni, ishning uddasidan chiqishni va o'z imkoniyatllarini baholashni, yasayotgan buyumini mumkin qadar durustroq chiroyliroq yasashga intilishni urgatadi. Qo'l mehnati mashg'ulotllarida boalalar mehnat asboblarini ishlata bilishni ham ashyoni tejab ishlatishni o'rganadilar. Dastlab bola ko'ziga ahamiyatsiz bo:lib ko'ringan narsa,uning qo'li va idroki bilan ko'z oldida o'zgarib boradi. Bunda bola uchun eng qimmatli tuyg'u mehnat quvonchi paydo bo'ladi. Qo'l mehnatiga rahbarlik qilish tarbiyachidan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishni bolalarga yasash usullarini urgata bilishni, o'z vaqtida ularga yordamga kela bilishni zarur narsalar bilan ta'minlay bilishni talab etadi.

Oddiy qog'ozdan bolalar kaptar, varrak archa bezaklari va yana boshqa narsalar yasashlari mumkin. Bolalarga yasashlari uchun jihozlarni berishdan avval shu jihozlar haqida, ularning qayerda ishlatilishlari haqida batafsil suhbat o'tkazish, uning qayerda ishlatilishini tushuntirish lozim.

Bolalar qo'lga qaychi, qalam, mo'yqalam va boshqa ashyolarni berayotganda ularni ishlatishda dastlabki texnik usullar bilan tanishtirish kerak. Har qanday mehnat ham ijodiy yo'naltirilgan, fikrni rivojlantirgan bo'lgan taqdirdagina yaxshi samara beradi. Mehnatga nisbatan ayni shunday munosabatni tarbiyalashda qo'l mehnati mashg'ulotlarning ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalar tushunib yetadigan formalarni tanlash, bolalarni o'ylagan g'oyalarini tezroq amalga oshirishga yordam beradigan ishtiyoq uyg'otadigan usullarni tanlash kerak.

Bolalarda dastlab o'ylagan g'oyani amalga oshirish uchun hamisha ham o'quv, ko'nikma, qobiliyat, qunt yetarli bo'lavermaydi. Yasay boshlagan o'yinchoqni yarim yo'lda tashlab ketish xollari, pala partish yasash xollari ham uchrab turadi. Ayrim bolalar o'ylagan narsani yasash uchun material tanlay bilishni mavjud material bilan qanday ishlash kerakligini bilishmaydi. Tarbiyachi qo'l mehnati mashg'ulotlari jarayonida bolalarga iloji boricha material, ashyolarning o'ziga xos tomoni, qayerda ishlatilishi lozimligini tushuntirishi kerak. Boshqacha qilib aytganda bolaning materialni qo'li idroki bilan his qilish qobiliyatini ham rivojlantirishi kerak. Material haqida qayta-qayta so'zlab, bolaning nutqini o'stirishi aqliy qobiliyatlarni tarbiyalash kerak. Qo'l mehnati mashg'ulotlarida katta guruh bolalari qog'oz karton bilan ishlash, buklash yelimplash, qaychi bilan qirqishni mashq qiladilar.

Qo'l mehnati mashg'ulotlari haftada bir marta, kunning ikkinchi yarmida o'tkazish tavsiya etiladi.

Qo'l mehnati hamma yoshdagi bolalar sevib ijro etadigan turi hisoblanadi. Chunki qo'l mehnati bolalarning o'zligini namoyon qilishga yordam beradi. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, biron bir predmetni yasashga kirishish oldindan bola hayolan uning qanday bo'lishini tasavvur qilishi kerak. Boshqacha

qilib aytganda yasayotgan predmetning tayyor holda ko'ra bilish kerak. Tarbiyachi bu predmatni obrazini tasvirlash ya'ni hajmi,shakli,rangini aytib berish bilan bolalarga yordam beradi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlarining qay tarzda tashkil etilishi ko'zlangan maqsad va topshiriq mazmuniga bogliq. O'rta guruhda oldindan tayyorlangan materiallardan foydalangan holda hamma bir xil predmet yasaydi va kimniki yaxshi chiqadi deb yasashni taklif etadi. Katta guruhlarda esa bolalarga alohida ya'ni individual topshiriq berish farmonini qo'llash mumkin.

Bolalar har xil o'yinchoq yasayotganidan qat'iy nazar tarbiyachi hammaga e'tibor beradi.Kimgadir yordamlashadi, kimnidir yaxshi ishi uchun rag'batlantiradi.

Mashg'ulot yakunida yasagan o'yinchoqlar hamma ko'radigan yerga to'planadi.Bolalarning ishlariga baho beriladi.Eng yaxshi deb topilgan o'yinchoqlar belgilanadi.Bola o'z qo'li bilan yasagan ishlar juda chiroyli bo'lmasligi mumkin.Muhimi uni bola yasaydi. Shu jarayonida uning kayfiyati ko'tariladi, ijodiy fikrlashi,qobiliyati o'sadi. Yana eng muhimi shuki bola o'z ishini qo'lidan kelgancha bajarib bo'lib,zavq qoniqish hissini sezadi.

Xulosa qilib aytganda, Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni maktab talimiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo'lishini taminlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi . Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib , tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar tasirida bolaning aqliy faoliyati ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha tarbiya yoshida bilim tez suratlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Олий таълим муассасалари педагоглариининг креатив кобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

2.Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.

3. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О'ЙИН ТУРЛАРИНИНГ
MAZMUNI

М Норқузиёева - Мактабгача таълим журнали, 2021

4. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILAVIY MUNOSABATLARINI
TARKIB TOPTIRISHGA OID QARASHLARI

М Норқузиёева - Мактабгача таълим журнали, 2021

5. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ
ТА'ЛИМИГА АХЛОҚИЙ ТАЙЙОРГАРЛИГИНИНГ MEZONI

М Норқузиёева - Мактабгача таълим журнали, 2021

6. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ
ТА'ЛИМИГА АХЛОҚИЙ ТАЙЙОРГАРЛИГИНИНГ MEZONI

М Норқузиёева - Мактабгача таълим журнали, 2021

Все версии статьи (27)

7. THE CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF THE FORMATION OF
STABILITY IN THE TEACHING PROFESSION

М Норқузиёева - Mental Enlightenment Scientific-Methodological ..., 2021

8. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИГИГА
ТАЪСИР ЭТУВЧИ ДЕФОРМАЦИЯЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ
ТЕХНОЛОГИЯСИ

М Норқузиёева - Academic research in educational sciences, 2021